

## TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATI TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

A.Avliyakulov

TerAIRI dots.

Saydolimova Zebo Karamatovna

TerDU Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) ta`lim yo`nalishi magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7444816>

*Annotatsiya. Bugungi kunda oliv ta'lism muassasalari, - ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatish, fundamental bilimlarga asoslangan va ayni vaqtida amaliyotga yo'naltirilgan innovatsiyalarning o'ziga xos donori sifatida chiqishi kutilmoqda. Axborot texnologiyalarining zamonaviy jamiyati uning fuqarolari mustaqil, faol ish olib borishga, qarorlar qabul qilishga, o'zgarib borayotgan turmush sharoitlariga tez moslashishga qodirligidan ko'p darajada manfaatdordir.*

*Kalit so`zlar: ta'lism muassasalari, faoliyat, kasbiy uyushma, pedagog, ilmiy xodimlar, ota-onalar, jamoat tashkilotlari.*

## СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ И ЕГО ОСОБЕННОСТИ

*Аннотация. Сегодня высшие учебные заведения призваны выступить уникальным донором инноваций, основанных на фундаментальных знаниях и в то же время ориентированных на практику, оказывающих непосредственное влияние на социально-экономическое развитие. Современное общество информационных технологий во многом заинтересовано в том, чтобы его граждане были способны работать самостоятельно, активно, принимать решения, быстро адаптироваться к изменяющимся условиям жизни.*

*Ключевые слова:* образовательные учреждения, деятельность, профессиональное объединение, педагог, педагогический коллектив, родители, общественные организации.

## THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF QUALITY OF EDUCATION IN GENERAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND ITS FEATURES

*Abstract. Today, higher education institutions are called upon to act as a unique donor of innovations based on fundamental knowledge and, at the same time, practice-oriented, having a direct impact on socio-economic development. The modern information technology society is largely interested in its citizens being able to work independently, actively, make decisions, and quickly adapt to changing living conditions.*

*Keywords:* educational institutions, activity, professional association, teacher, teaching staff, parents, public organizations.

Ushbu vazifalarni hayotga tadbiq etish uchun yirik va o'rta biznes, ta'lism muassasalarining kasbiy uyushmalari, pedagoglar va ilmiy xodimlar, ota-onalar va jamoat tashkilotlarining davlat ta'lism siyosatini amalga oshirishdagi ishtiroki shaklini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ularning ishtirokini faollashtirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Oliy o'quv yurtlarining vasiylik va kuzatuv kengashlari ushbu vazifani hal etishning samarali vositalari hisoblanadilar. Ularni tashkil etish va faoliyatini yo'lga qo'yishning jahon tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, bunday kengashlar oliy ijroiya hokimiyatiga egalar, ular o'quv dasturlaridan boshlab, oliy o'quv yurtidagi o'qituvchilar va xodimlarning bo'sh o'rinnarini

to‘ldirish tartibigacha bo‘lgan oliy ta’lim muassasasining tashkiliy tuzilmasi va siyosatini shakllantiruvchi qonunchilik organlari hisoblanadilar.

Mana shu aytib o‘tilgan fikrlar va unda ko‘tarilayotgan muammolar bo‘yicha mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishning zamonaviy yondashuvlarini atroflicha tahlil qilish, ularning eng yaxshi namunalarini mamlakatimiz oliy ta’lim tizimiga joriy qilish istiqbollarini belgilash bo‘yicha o‘z qarashlarimiz, fikr-mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalari berilishini asoslaydi.

So‘nggi bir necha o‘n yilliklar davomida ta’lim sohasidagi “sifat” tushunchasi “intellektual ustunlik” tushunchasi bilan o‘xshash bo‘lib, bunday ustunlik masalan, oliy ma‘lumotli mutaxassislar ulushi yoki xalqaro talabalar musobaqalaridagi muvaffaqiyatlar soni bilan o‘lchanar edi. Bugungi kunlarda esa “ta’lim sifati” tushunchasi butunlay o‘zgacha ahamiyat kasb etmoqda. Institutsional muhit uchun ta’lim sifati tushunchasi shuni anglatadiki, bunda oliy ta’lim muassasalari aholi turli qatlamlarining ta’limga bo‘lgan talab-ehtiyojlarini uzlusiz ravishda qondirish va rivojlantirish uchun potensial qobiliyatlarga ega bo‘ladilar. Zamonaviy oliy ta’lim muassasasi modeli uning an’naviy ko‘rinishidan shu bilan farq qiladiki, bunga ko‘ra xilma-xil turlardagi ta’lim dasturlarini taklif etishga, tahsil oluvchilarnig ijodiy faolligini uyg‘otishga, ularga ish topishning yaxshigina istiqbollarini kafolatlay olishga qodir bo‘lgan oliy ta’lim muassasasi an’naviy ta’lim sifatiga nisbatan ancha yuqori ta’lim sifatini ta’minlab beradi.

Oliy ta’lim sifatini tushunishdagi ikkinchi yondashuv, o‘qitish jarayonida oraliq attestatsiyadan, test topshiriqlaridan, nazorat ishlaridan o‘tkazish yo‘li bilan aniqlanadigan ta’lim berish faoliyati natijalar bilan bog‘liqidir.

Shuningdek, oliy ta’lim sifatini ta’lim tizimining amal qilishi sifati tarzida tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan uchinchi yondashuv ham mavjuddir. Bunday yondashuv tarafдорлari oliy ta’lim sifati muammosini oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartlari talablarini oshirish va unga erishish zarurati sifatida olib qaraydilar. Mazkur yondashuv doirasida oliy ta’lim muassasalaridagi oliy ta’lim sifatini tasdiqlash masalasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri taqdim etilayotgan oliy ta’lim xizmatlarining davlat standartlariga mosligini sertifikatlash bilan bog‘lanadi, bu standart talablarining bajarilmasligi esa bunga yo‘l qo‘ygan oliy ta’lim muassasasining faoliyati ta’limni boshqarish organi qarori asosida to‘xtatilishini bildiradi.

Shu bilan birga, ayrim olimlar “ta’lim sifati” tushunchasini ancha muvaffaqiyatliroq, tizimli ta’riflashga urinib ko‘rdilar. Bu mualliflar shunday deb hisoblaydilarki, ijtimoiy tizim sifatida ta’lim sifati tizimli-ijtimoiy sifatlar avlodiga mansubdir. U jamiyat, shaxs, doktrina, boshqa ijtimoiy tizimlar tomonidan ta’lim tizimi oldiga qo‘yiladigan talablarga moslikdir. Bundan so‘ng ular haqli ravishda ta’kidlaydilarki, ta’lim tizimi sifatida ta’lim jarayonining sifati ham – tor ma’noda, o‘qitish, tarbiyalash va ta’lim sifatida aks etadi. Shunday qilib, mualliflar “ta’lim sifati” tushunchasini keng va tor ma’noda olib qarashni taklif etadilar. Ularning ta’rifi bo‘yicha, ta’lim sifati – bu:

- ta’limning ko‘plab xillardagi talablar, ehtiyojlar, maqsadlar, me’yor (standart)larga muvozanatlashgan holdagi mosligidir;
- ta’limning ierarxik tashkil etilgan, ijtimoiy ahamiyatli mazmuniy xossalaring tizimli yig‘indisidir.

Ochiq-oydin ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim muassasalari, sifatning tor doiradagi tavsifidan foydalanish imkoniga ega emaslar. Shunga ko‘ra, ta’lim sifati, oliy ta’lim muassasasining sifati – bular ko‘p o‘lchamli va ko‘p qirrali tushunchalardir.

Sifat tushunchasi an’anaviy qarashlardan ancha keng doiraga tarqaladi va bu o‘quv dasturlari mazmuni standartlarga mosligi yoki oliv ta’lim muassasasi talabalarining imtihon baholari darajasida ifodalanadi. Oliy ta’lim muassasasi quyidagi konsepsiyani qabul qilishi va undan foydalanishi zarur bo‘ladi: sifat – bu iste’molchi (talaba, o‘qituvchi, korxona, jamiyat)lar talablarini qondirish darajasi, oliv ta’lim muassasasining samarali ishslash va uyg‘un kundalik faoliyatni yuritishga tayyorligi darajasidir. Yuqorida aytib o‘tilgan fikr ta’lim sifati tushunchasini o‘z ichiga quyidagilarni oluvchi piramida ko‘rinishida o‘rganish va tadqiq qilish imkonini beradi:

- ta’lim tizimi sifati;
- ta’limni boshqarish sifati;
- ta’lim jarayonlari sifati;
- ta’lim natijalari sifati.

Oliy ta’lim sifati tushunchasini ta’riflashga bo‘lgan turli xil yondashuvlarning tahlilini tugata turib, diqqatni metodologik nuqtai-nazardan yana bitta prinsipial jihatdan muhim bo‘lgan o‘ziga xoslikka qaratishni xohlar edik. Oliy ta’lim sifati kabi mana shunday ko‘p rejali va majmuaviy tushunchaning universal ta’rifini izlab topishning samarasizligi uning mazmuniy xossalari va tuzilmasini aniqlash imkoniyatining yo‘qligini bildirmaydi. Oliy ta’lim sifati har doim tizimning o‘zida yuzaga kelayotgan natijalarning davlat, jamiyat va alohida bir shaxsning talablariga mosligi (yoki mos kelmasligi) aniqlanadigan vosita bo‘lib o‘rtaga chiqadi. Bunda tizim ham, jarayon ham, natija ham o‘zining ijtimoiy vazifalariga mos kelishi va iste’molchilar turli guruqlarining konkret talablariga to‘la javob bera oladigan bo‘lishi kerak.

## REFERENCES

1. Boltaboev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva SH.J., G’oyipnazarov B.K., Samadov A.N., Xodjaev R.S. Kichik biznes va tadbirokrlilik. – T.:ADIBNASHRIYOTI, 2011.
2. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va tadbirkorlik. T.: TDIU, 2010.
3. Qosimova M.S., Yusupov M.A., ErgashxodjaevaSH.J. Marketing. –T.: TDIU - 2010.
4. G’ulomova F. Buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganuvchilar uchun qo’llanma. –T.: “NORMA” nashriyoti, 2010. -507 b.